



HARBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Kaxxarov Siyavush Xudoyor o'g'li,

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1743>

MAQOLA HAQIDA/O СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 31

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

harbiy madaniyat, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi, ta'lim tizimi, pedagogik mexanizmlar, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, vatanparvarlik, kompetensiyaviy yondashuv, interaktiv ta'lim texnologiyalari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada harbiy madaniyatning mazmun-mohiyati, uning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'z mi hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Harbiy madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari, tarixiy ildizlari va zamonaviy pedagogik mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda harbiy madaniyatni rivojlantirishda ta'lim muassasalarining o'z mi, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimining ahamiyati, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining normativ-huquqiy asoslari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv metodlar, keys tahlili va loyiha faoliyatining yoshlar ongida harbiy madaniyatga oid bilim, ko'nikma va qadriyatlarini shakllantirishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Maqolada harbiy madaniyatni shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari kompetensiyaviy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini ochib berilib, yoshlarda fuqarolik mas'uliyati, Vatanga sadoqat, strategik tafakkur va ijtimoiy faollikni rivojlantirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligining harbiy madaniyatni shakllantirishdagi o'z mi yoritilgan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar va loyiha faoliyatidan foydalanishning samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijalari yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularning ma'naviy-axloqiy barqarorligini mustahkamlash va milliy xavfsizlikka daxldorlik hissin rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur yondashuv harbiy madaniyatni ta'limning barcha bosqichlarida uzviy va izchil shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 31

KEYWORDS

military culture, military-patriotic education, education system, pedagogical mechanisms, pre-conscription training, patriotism, competency-based approach, interactive educational technologies

ANNOTATION

This article analyzes the essence of military culture, its role in fostering patriotism among young people, and its significance within the educational system from a scientific and pedagogical perspective. The theoretical foundations, historical roots, and modern pedagogical mechanisms of military culture formation are examined. The study highlights the role of educational institutions, the importance of pre-conscription training, the legal and institutional framework of military-patriotic education, and the application of modern educational technologies. Particular attention is paid to the effectiveness of interactive methods, case-study approaches, and project-based learning in developing military-cultural knowledge, skills, and values among young people. This study explores the pedagogical mechanisms of military culture formation within the context of modern educational transformation and competency-based learning. Particular attention is paid to the integration of military-patriotic education into the educational process as a means of developing civic responsibility, patriotism, leadership qualities, and strategic thinking among young people. The research highlights the role of educational institutions, family, and community cooperation in fostering military-cultural values and examines the effectiveness of interactive teaching methods, project-based learning, and digital educational technologies. The findings demonstrate that military culture serves not only as a component of professional military preparation but also as an important factor in shaping socially responsible, morally mature, and nationally conscious citizens. The proposed pedagogical approaches contribute to improving the scientific and methodological foundations of military culture development at all levels of education and strengthening youth readiness to contribute to national security and social stability.

Kirish. Bugungi globallashtirish sharoitida dunyo miqosida kuzatilayotgan murakkab harbiy-siyosiy jarayonlar, geosiyosiy raqobatning kuchayishi hamda xalqaro xavfsizlikka tahdidlarning xilma-xillashuvi jamiyat oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda davlat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlash faqat harbiy salohiyat yoki texnik imkoniyatlar bilan emas, balki fuqarolarning ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi, vatanparvarlik ruhiyati va harbiy madaniyat darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli yosh avlodda harbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda harbiy madaniyatga oid kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylanoqda. Harbiy madaniyatning shakllanishi shaxsda mas'uliyat, intizom, fuqarolik pozitsiyasi, Vatan taqdiriga daxldorlik hissi hamda murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan harbiy ta'lim va tarbiya tizimi nafaqat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, balki ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish, harbiy ilm-fan rivojini qo'llab-quvvatlash va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Zamonaviy qurolli mojaralar xarakterining o'zgarishi, axborot texnologiyalarining harbiy sohaga keng kirib kelishi hamda xavfsizlik tahdidlarining murakkablashuvi ta'lim jarayonini yangi

mazmun bilan boyitishni talab qilmoqda. Natijada harbiy pedagogika oldiga nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki strategik fikrlaydigan, yuksak ma'naviyat va mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni tarbiyalash vazifasi qo'yilmoqda. Shu nuqtai nazardan harbiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning mazmunini yangilash, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va mazkur yo'nalishda faoliyat yuritadigan pedagog kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...maxsus ta'lim maskanlarida tahsil olayotgan farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi". [2, 387-b]

Harbiy madaniyatning shakllanishi o'zbek davlatchiligi tarixida shakllangan boy harbiy meros bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, Amir Temur tomonidan yaratilgan harbiy boshqaruv tizimida intizom, adolat, mas'uliyat va sadoqat tamoyillariga alohida e'tibor qaratilgani bugungi harbiy ta'lim va tarbiya tizimi uchun ham muhim nazariy manba hisoblanadi. "Temur tuzuklari"da qo'shim boshqaruvi, harbiy intizom, sarkardalarning ma'naviy fazilatlarini hamda jangchilarning axloqiy qiyofasiga oid qarashlar o'z aksini topgan bo'lib, ular harbiy madaniyatning tarixiy asoslarini tashkil etadi. Davlatimiz rahbari

tomonidan Amir Temurning "...g'alaba taqdirini, avvalo, qo'shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi" – degan fikrining keltirilishi ham bejiz emas [3, 247-b]. Zero, mazkur qarash bugungi kunda ham harbiy xizmat samaradorligini ta'minlashda inson omili, ma'naviy tayyorgarlik va ruhiy barqarorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Shu ma'noda harbiy madaniyatni shaxsning harbiy sohaga oid bilimlari, qadriyatlari, kasbiy fazilatlarini, fuqarolik mas'uliyati va axloqiy me'yorlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida baholash mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistonda harbiy madaniyatni rivojlantirish va uni yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Harbiy akademiyalar, "Temurbeklar maktablari", akademik litseylar va umumta'lim muassasalarida tashkil etilgan vatanparvarlik tarbiyasi tizimi yoshlarning harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda ularda milliy g'urur, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va zamonaviy mediasfera imkoniyatlaridan foydalanish orqali harbiy xizmatchilarning fidokorona faoliyati, mamlakat mudofaa tizimidagi islohotlar va harbiy kasbning ijtimoiy ahamiyati keng targ'ib etilmoqda. Bunday faoliyat natijasida harbiy sohaga nisbatan ijobiy jamoatchilik fikri shakllanib, yoshlarning kasbiy orientatsiyasi va vatanparvarlik ruhiyati mustahkamlanmoqda. Harbiy madaniyatning yana bir muhim jihati shundaki, u shaxsning nafaqat jangovar tayyorgarligini, balki ma'naviy yetukligi, kasbiy mas'uliyati, kommunikativ qobiliyati va murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini ham rivojlantiradi. Shu sababli harbiy madaniyatni shakllantirish bugungi kunda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan amaliy tashabbuslar orasida "Vatan tayanchi" harakati alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mazkur harakat doirasida respublika bo'yicha yigirma mingdan ortiq yoshlarni qamrab olgan guruhlarning faoliyat yuritayotgani yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [4, 251-252 b]. Ushbu tashabbus yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularda milliy g'urur va daxldorlik hissini kuchaytirish hamda harbiy madaniyatning dastlabki elementlarini bosqichma-bosqich qaror toptirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Natijada harbiy madaniyat shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligini, balki uning ma'naviy kamoloti, fuqarolik mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Harbiy madaniyatni shakllantirish masalasi pedagogika, harbiy fanlar, sotsiologiya va psixologiya kesishgan nuqtada o'rganiladigan murakkab ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar harbiy madaniyatning nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamoloti, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab beradi. O'zbekiston Respublikasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining nazariy va huquqiy asoslari Konstitutsiya hamda davlat siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ularda yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Harbiy madaniyatning tarixiy ildizlari o'zbek davlatchiligi va harbiy san'ati an'analari bilan bog'liqdir. Sh.M. Mirziyoyev o'z asarlarida buyuk sarkardalar merosini o'rganish, yoshlar qalbida milliy ruh, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim omili ekanligini ta'kidlaydi [2, 387-b]. Shuningdek, muallif Amir Temur harbiy boshqaruv tizimining asosida jangovar ruh, ma'naviy qudrat va mustahkam iroda yotganligini qayd etib, zamonaviy harbiy ta'limda ushbu qadriyatlarining ahamiyatini alohida ko'rsatadi [3,247-b]. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Vatan tayanchi" harakati faoliyatini yoritgan holda, muallif mazkur tashabbus yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va Vatanga daxldorlik hissini mustahkamlashga xizmat qilayotganini qayd etadi [4, 251-252 b].

Harbiy ta'limni modernizatsiya qilish masalalari ilmiy paradigmalarning almashinuvi nazariyasi orqali ham izohlanadi. T. Kun ilm-fan rivojlanishida eski nazariy qarashlarning inqirozi va yangi konseptual yondashuvlarning shakllanishi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [5, 89-b]. Ushbu yondashuv harbiy ta'lim tizimida an'anaviy bilim berish modelidan kompetensiyaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalariga o'tish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Samadovning tadqiqotida esa harbiy ta'lim paradigmasining o'zgarishi o'qituvchilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liqligi ko'rsatib berilgan [6, 121-b].

Xorijiy tajribalarni o'rganish ham harbiy madaniyatni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. V.A.

Korytkov NATO davlatlarida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimini tahlil qilib, mazkur mamlakatlarda fuqarolarning harbiy tayyorgarligi milliy xavfsizlik strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishini ta'kidlaydi [7, 155-160 b]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik tayyorgarlikning uyg'unligi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularda fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan strategik vazifalarni belgilab bergan [8]. "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"da esa yosh avlodni milliy g'oya, Vatanga sadoqat va davlat manfaatlarini himoya qilish ruhida tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari belgilangan [9].

Ta'lim va inson taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan A.A.Salimov ta'limni jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholaydi [10, 13-b]. Bu qarash harbiy madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimining yetakchi rolini asoslashga xizmat qiladi. Harbiy pedagogika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa harbiy madaniyatning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanuvchi bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari tizimi ekanligi qayd etilgan [11].

Harbiy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan nizomlarda harbiy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish ekanligi ko'rsatilgan [12]. Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha normativ hujjatlarda yoshlarning milliy g'ururini rivojlantirish, harbiy xizmatga hurmat ruhini kuchaytirish va Vatan himoyasiga tayyorlik darajasini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [13].

Pedagogik adabiyotlarda harbiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida intizom va mas'uliyat tushunchalari alohida o'rin egallaydi. Mamarasulov yoshlarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda tartib va intizomning ahamiyatini asoslab, ushbu fazilatlar shaxsning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [14]. Bekmurodov esa oila va ta'lim muassasasi hamkorligida olib boriladigan vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarning ma'naviy kamolotiga samarali ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [15].

So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 591-son qarorida yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari belgilangan [16]. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining milliy dasturida esa harbiy qasamyod mazmunini anglash, harbiy ish asoslari, fuqaro muhofazasi va tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan [17, 6-b]. Shuningdek, 2023–2027-yillarga mo'ljallangan konsepsiya yoshlarni bosqichma-bosqich harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning uzluksiz tizimini yaratishni nazarda tutadi [18, 19-b].

Pedagogik mahorat va kompetensiyaviy yondashuv masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya harbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Nurmanov va Turganovning fikricha, kommunikativ kompetensiya boshqa kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur poydevor vazifasini bajaradi [20, 5-b]. Shu sababli zamonaviy harbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida yoshlarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki muloqot, jamoada ishlash va strategik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalarda harbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni tarixiy meros, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, davlat siyosati va xalqaro tajribaning o'zaro uyg'unligi asosida amalga oshirilishini ko'rsatadi. Shu bois harbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish bugungi kunda harbiy ta'lim tizimining ustuvor ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, falsafiy va harbiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy-tahliliy hamda mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid konsepsiyalar, davlat dasturlari va me'yoriy hujjatlar mazmunini tahlil qilinib, ularning harbiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni baholandi. Tadqiqot natijalarini asoslashda kompetensiyaviy, shaxsiga yo'naltirilgan va tizimli yondashuv tamoyillariga tayanildi. Olingan ma'lumotlar pedagogik talqin qilish, sintez va umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, harbiy

madaniyatni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik jarayonida yoshlarni davlat mustaqilligi, milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashdek yuksak maqsadlar yo'lida ma'nan yetuk, jismonan chiniquqan, keng dunyoqarashli hamda yuksak intellektual salohiyatga ega shaxslar etib tarbiyalashdan iboratdir. Chunki zamonaviy taraqqiyot sharoitida davlatlarning qudrati nafaqat texnik imkoniyatlar, balki inson kapitalining sifati, uning bilim darajasi va strategik tafakkuri bilan ham belgilanmoqda. Shu bois harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni ham yangi mazmun kasb etib, u shaxsning ma'naviy, intellektual va kasbiy kamoloti bilan chambarchas bog'lanmoqda.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "Ta'lim insonni rivojlantirishning eng muhim omili sifatida har qanday mamlakatda hozirgi davr uchun munosib bo'lgan aholi turmush darajasi va sifatiga erishish, ish bilan samarali bandlikni ta'minlash, barqaror rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish, fuqarolik jamiyati tarkibini mustahkamlash, inson huquqlariga rioya etish va ularni samarali amalga oshirish, shaxsning imkoniyatlarini to'la va har tarafлама ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi bir qator iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va gumanitar muammolarni hal qilishga katta ta'sir ko'rsatadi" [10, 13-b] Shu nuqtai nazardan qaraganda, harbiy madaniyat ta'limi ham Vatanga sadoqat, qat'iy intizom, mas'uliyat, jamoaviylik va fuqarolik burchi kabi fazilatlarini shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, "Harbiy madaniyatni pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish, eng avvalo, uning shakllanish manbalari va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liqligini tushunishni talab qiladi. Bu madaniyat turi nafaqat maxsus harbiy muassasalarda, balki umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ham maqsadli ravishda shakllantirilishi lozim" [11]. Chunki harbiy madaniyat Vatanga muhabbat, uni himoya qilishga tayyorlik va fuqarolik mas'uliyatini o'zida mujassamlashtirgan umummilliy qadriyat sifatida jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Pedagogik strategiya nuqtai nazaridan harbiy madaniyatni qaror toptirish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki ustuvor yo'nalishni qamrab oladi. Bir tomondan, u yoshlarda vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, milliy manfaatlariga daxldorlik hissi hamda jamiyat va davlat barqarorligini ta'minlashga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Ikkinchi tomondan esa, shaxsda qat'iy intizom, psixofiziologik barqarorlik, murakkab va ekstremal vaziyatlarda tezkor hamda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Mazkur sifatlar majmui harbiy faoliyat samaradorligini ta'minlash bilan birga, barkamol shaxsni shakllantirishning muhim ma'naviy-pedagogik omili sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan harbiy madaniyat nafaqat harbiy xizmat bilan bog'liq kompetensiyalar yig'indisi, balki shaxsning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy kamolotini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa hisoblanadi.

Harbiy madaniyatni rivojlantirishda ta'lim tashkilotlarining o'zni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki amaliy mashg'ulotlar, simulyatsion vaziyatlar, rolli o'yinlar, harbiy-amaliy tadbirlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Xususan, fuqarolik mudofaasi, hayot faoliyati xavfsizligi va umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari yoshlarning harbiy madaniyatga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiyaviy tadbirlar, tarixiy qahramonlar hayoti va faoliyatini o'rganish, milliy armiyaning rivojlanish bosqichlari bilan tanishish hamda harbiy qismlarga tashriflar uyushtirish yoshlarda harbiy iftixor, milliy g'urur va Vatan himoyasiga daxldorlik hissinu mustahkamlaydi. Bizningcha, aynan ta'lim muhiti harbiy madaniyatning nazariy asoslarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish imkonini beruvchi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan harbiy madaniyat yosh avlod ongida Vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini qaror toptiruvchi muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsni nafaqat bilimli va yuqori malakali mutaxassis, balki yuksak ma'naviy qadriyatlarga ega, jamiyat va davlat oldidagi burchini chuqur anglaydigan fuqaro sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan harbiy madaniyatni ta'lim tizimiga integratsiya qilish nafaqat harbiy tayyorgarlikning, balki umumiy tarbiya jarayonining ham ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki harbiy madaniyatning mazmun-mohiyatida intizom, mas'uliyat, burch, sadoqat, hamjihatlik va jamoaviylik kabi umuminsoniy qadriyatlar mujassam bo'lib, ular yoshlarning ma'naviy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalari bosqichida talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil dunyoqarash va faol fuqarolik pozitsiyasi ma'lum darajada shakllangan bo'ladi. Shu bois mazkur bosqichda harbiy madaniyatni rivojlantirish jarayoni faqat axloqiy tarbiya bilan chegaralanib qolmay,

balki intellektual va falsafiy yondashuvlar asosida ham olib boriladi. Xususan, "Milliy g'oya", "O'zbekiston tarixi", huquqshunoslik va siyosatshunoslik fanlari orqali davlat va jamiyat xavfsizligi, Vatan himoyasining huquqiy asoslari, tinchlik va barqarorlikning qadri kabi masalalar keng yoritiladi. Talabalarning o'z tashabbuslari asosida amalga oshiriladigan loyihalar, volontyorlik faoliyati, harbiy qismlardagi amaliyotlar hamda jamoat ishlaridagi ishtiroki ularda harbiy madaniyat mazmunini yanada chuqurroq anglash imkonini yaratadi. "Ta'limning har bir bosqichida harbiy madaniyatning tarkibiy jihatlari mos ravishda va izchil tarbiyalanishi talab etiladi. Maktabda – asos solish, kolleжда – mustahkamlash, universitetda – chuqur idrok va faol hayotiy pozitsiya shakllantirish yo'lida harbiy madaniyatni ta'lim jarayoniga maqsadli integratsiya qilish milliy va ma'naviy barkamollik sari xizmat qiladi" [12].

Mazkur fikr bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri harbiy madaniyatni yoshlarning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasining tarkibiy qismiga aylantirish ekanligini ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim tizimida harbiy madaniyat fundamental bilimlardan boshlab, qat'iy irodaviy tayyorgarlik va yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Ushbu jarayon shaxsning professional sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, harbiy infratuzilma va mudofaa imkoniyatlaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham takomillashtiradi. Mohiyatan, bu individual salohiyat va strategik tafakkurni uyg'unlashtiruvchi kompleks pedagogik model sifatida namoyon bo'ladi.

Harbiy madaniyatning shakllanishida ta'lim jarayoni alohida o'rin tutadi. U harbiy jamoalardagi rasmiy-nizomiy va norasmiy munosabatlar uyg'unligini ta'minlash, g'oyaviy va ma'naviy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish hamda ularni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ilmiy qarashlarda harbiy madaniyat ko'pincha harbiy fanlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib, shaxs ongida barqarorlashadigan bilimlar, qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari majmui sifatida talqin etiladi. Shu sababli harbiy madaniyatni shakllantirish jarayoni faqat ma'lum bir fan yoki mashg'ulot doirasida emas, balki butun ta'lim muassasasining ma'naviy muhitida namoyon bo'lishi lozim.

Ilmiy-pedagogik kuzatuvlar va empirik tadqiqotlar natijalari yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlashning amaldagi holati zamonaviy professional talablariga, xususan, kompetentlik darajasiga to'liq mos kelmasligini ko'rsatmoqda. Xususan, Z.Sh. Alimardonov bo'lajak ofitserlarning kasbiy shakllanishini ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar, strategik mobillik, operativ-taktik moslashuvchanlik, emotsional barqarorlik hamda vatanparvarlik fazilatlarining uyg'unligi orqali izohlaydi. Mazkur yondashuv harbiy madaniyatni qaror toptirishda ta'lim tizimining hal qiluvchi va yetakchi o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Chunki zamonaviy harbiy mutaxassisdan nafaqat maxsus kasbiy bilimlar, balki yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar, kommunikativ salohiyat va strategik fikrlash ham talab etiladi.

Muhokama. Bu jarayonda harbiy madaniyatning ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi o'quv-tarbiyaviy muhitni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ta'lim muassasalarida bunday muhitni shakllantirish nafaqat harbiy-tarbiyaviy bilimlarni berish, balki yuksak fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashga qaratilgan tizimli faoliyatni ham taqozo etadi [13]. "Ta'lim muassasasidagi ichki tartib, formal ma'lumotlar taqdimoti, vaqtga rioya qilish, yoshlarda harbiy intizomni shakllantiradi. Bunda ustozlar namunasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi" [14].

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy muhitni harbiy madaniyat tamoyillari asosida shakllantirish oddiy amaliy mashg'ulotlar yoki mudofaa yo'nalishidagi fanlarni o'qitish bilan cheklanmaydigan murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayon ta'lim mazmuni, tarbiyaviy faoliyat, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari hamda ta'lim subyektlari o'rtasidagi munosabatlar tizimining o'zaro uyg'unligini taqozo etadi. Shu bois harbiy madaniyatni qaror toptirish ta'lim muassasasining barcha faoliyat yo'nalishlarini yagona maqsad – Vatanga sadoqatli, ma'naviy yetuk va mas'uliyatli shaxsni tarbiyalash g'oyasi atrofida birlashtirishni talab qiladi.

Birinchiidan, o'quv dasturlarining mazmun-mohiyatini takomillashtirish va ularga harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini izchil integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari bilan bir qatorda tarix, adabiyot, falsafa va huquq kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunida milliy qahramonlar merosi, Vatan himoyasi g'oyalari hamda harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini yoritish yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitadi. Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlik va mudofaa asosli mashg'ulotlar orqali ularda intizom, iroda, matonat va amaliy tayyorgarlik kabi sifatlar shakllantiriladi.

Ikkinchiidan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish lozim. Vatan himoyachilari kuni, xotira va qadrlash tadbirlari, harbiy qismlarga ekskursiyalar, faxriy harbiylar va soha

mutaxassislari bilan uchrashuvlar yoshlarning tarixiy xotirasini mustahkamlash, ularda kasbiy sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday interfaol tadbirlar nazariy bilimlarni real hayotiy tajriba bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Uchinchidan, ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni qaror toptirish zarur. Ichki tartib-qoidalarga rioya etish, mas'uliyatning aniq taqsimlanishi va o'zini o'zi boshqarish elementlarining mavjudligi yoshlarda harbiy intizom va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, pedagoglarning shaxsiy namunasi, ularning kasbiy mas'uliyati va fuqarolik pozitsiyasi tarbiyaviy ta'sirning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi ham harbiy madaniyatni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. "Vatan himoyachilari burchagi", "Shon-shuhrat kutubxonasi", harbiy texnika maketlari, elektron resurslar va multimedia vositalari asosida yaratilgan ta'lim muhiti yoshlarning qiziqishini oshirish bilan birga nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Shu bilan birga, ota-onalar va jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada kuchaytiradi. Bu borada "Ota-onalarni vatanparvarlik tarbiyasiga jalb etish, mahallalardagi faollar bilan hamkorlikda harbiy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish ta'lim muassasasida olinayotgan tarbiyani hayotda mustahkamlashga xizmat qiladi" [15].

Beshinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali harbiy madaniyatni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Onlayn seminarlar, virtual ekskursiyalar, vatanparvarlik mavzusidagi videomateriallar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar yoshlarning harbiy sohaga oid bilimlarini kengaytirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrda "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 591-son qarori mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan [16]. Mazkur hujjat harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini mustahkamlash bilan birga, yoshlarni chaqiruvga tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalarni ham belgilab beradi. Shu bilan birga, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani bo'yicha Milliy o'quv dasturida o'quvchilarda harbiy qasamyodning mazmun-mohiyatini anglash, harbiy ish asoslari, zarur harbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash, harbiy chiniquish, ruhiy barqarorlik, fuqaro muhofazasi hamda tibbiy bilim asoslarini o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan [17, 6-b].

Umumiy o'rta ta'lim tizimida esa o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan bir qatorda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, kommunikativ kompetensiyasi, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi hamda ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, huquqiy madaniyat, mustaqil fikrlash, mas'uliyat va fuqarolik burchini anglash kabi fazilatlar rivojlantiriladi. Mazkur kompetensiyalar harbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, yoshlarning Vatan oldidagi burchini ongli ravishda ado etishga tayyor bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, bu holat zamonaviy ta'lim tizimi zimmasiga intellektual salohiyati yuqori, strategik fikrlay oladigan, tahliliy yondashuvga ega va kasbiy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlashdek muhim vazifani yuklaydi.

Empirik izlanishlar shundan dalolat beradiki, harbiy ta'lim tizimidagi fan dasturlari hamda ishchi o'quv dasturlarining samarali tatbiq etilishi yoshlarda kelgusida o'zlari tanlagan kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli egallashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Hukumat qarori

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 387 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2024. – B 247.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. T.7. – T.: O'zbekiston, 2023. –B.251-252.
5. Кун Т. Структура научных революций. М.: "АКТ", 2020. – С. 89.

asosida 2023–2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan [18]. Konsepsiyada nazarda tutilgan tadbirlar yoshlarning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda besh bosqichda amalga oshiriladi: 1-bosqich (3–7 yosh), 2-bosqich (7–10 yosh), 3-bosqich (11–17 yosh), 4-bosqich (18–21 yosh) hamda 5-bosqich (22–30 yosh).

Mazkur qarorga muvofiq, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida qator amaliy tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, mahallalardagi kam ta'minlangan va ehtiyojmand oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash uchun "Ezgu amal" sahovat karvonlari, "Amir Temur izdoshlari", "Jaloliddin Manguberdi vorislari" harbiy-sport musobaqalari hamda yoshlar o'rtasida to'rt bosqichli (mahalla–tuman–viloyat–respublika) "Shunqorlar" va "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalari muntazam ravishda tashkil etilib kelinmoqda [19].

Harbiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining tarkibiy asosini strategik yo'naltirilganlik, professional ixtisoslashuv va amaliy natijadorlik kabi mezonlar tashkil etadi. Ushbu jarayon jismoniy intizom, samarali kommunikativ aloqa vositalari, muloqot strategiyalari hamda jamoaviy hamkorlik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikning asosiy maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash, ularda kasbiy mahorat va mas'uliyat hissini shakllantirish hamda Vatan himoyasiga tayyorlik darajasini oshirishdan iboratdir.

Harbiy ta'lim tizimida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. Chunki harbiy madaniyatning asosiy komponentlari amaliy faoliyat jarayonida shakllanadigan ko'nikma va malakalar majmuasidan iboratdir. Shuningdek, intizom va tartib harbiy madaniyatning eng muhim atributlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli pedagogik muloqot ta'lim jarayonini tashkil etish omili sifatida an'anaviy (o'quv-intizomiy) hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modellari uyg'unligida amalga oshiriladi. "Olimlarning fikricha, inson faoliyati davomida eng zarur bo'lgan kompetensiyalar ichida kommunikativ kompetensiya alohida ahamiyat kasb etib, u boshqa kasbiy kompetensiyalarni egallash uchun ham xizmat qiladi. Umuman olganda, ta'lim va tarbiya sohasida bugungi kunda keng joriy qilinayotgan kompetensiyaviy yondashuv ushbu jarayonning samarali natijasini ta'minlash uchun xizmat qiladi" [20, 5-b].

Xulosa. Pedagogik muloqot jarayonida pand-nasihati, tushuntirish, talab qo'yish, rag'batlantirish, ogohlantirish va nazorat kabi turli ta'sir vositalaridan foydalaniladi. Mazkur vositalarning ijobiy yoki salbiy shaklda qo'llanishi ta'lim jarayoni samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi konstruktiv muloqot shakllari yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoaviylik tamoyiliga ko'ra, harbiy xizmatchilar va yoshlar o'zaro hamkorlik qilishni, jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yishni hamda jamoaviy ruh asosida faoliyat yuritishni o'rganadilar. Hamkorlik pedagogikasida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabat muloqot samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik hamkorlik umumiy maqsad, o'zaro ishonch va mazkur maqsadga erishish istiqbollari ni anglashga asoslanadi.

Harbiy madaniyatni shakllantirish yoshlarning ongida Vatanga sadoqat, fuqarolik burchi, milliy xavfsizlik masalalariga daxldorlik hissi hamda qonunlarga hurmat tuyg'usini qaror toptirishga xizmat qiladi. Bunday fazilatlar ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Harbiy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra faqat harbiy sohaga oid bilim va ko'nikmalar majmui emas, balki vatanparvarlik, fidoyilik, intizom, mas'uliyat va jamoaviylik kabi qadriyatlarini o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizimdir. Shu sababli uni shakllantirish ta'limning barcha bosqichlarida izchil va uzviy ravishda amalga oshirilishi zarur.

6. Samadov A.A. O'zgaruvchan ta'lim paradigmasi sharoitida harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy mahoratini takomillashtirish mazmuni.//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022 yil № 12. – B 121.

7. Корытков В.А. Система подготовки к военной службе современной молодежи в государствах - членах НАТО. – Белоруссия: БелГУ, Научные ведомости / С: Гуманитарные науки. 2019. Том 38, № 1. - С.155-160.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5234746>

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 140-son Qarori // «Vatanparvar» gazetasi. – 2018. – 2 mart. – № 9 (2760).

10. Salimov A.A. Ta'lim sohasida inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari: iqt. fan. bo'yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 13 b.

11. Рукавицын И.М., Алехин И.А., Саханский Н.Б. Альбом схем по истории военной педагогики. М., 1997.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-oktyabrdagi «Oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 655-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/5688550>.

13. "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son Qaror. O'zbekiston Respublikasi VM. 23.02.2018-yil. // "Vatanparvar" gazetasi. – 2018. – 2 mart. – № 9 (2760).

14. Mamarasulov B. Yoshlarda mas'uliyat tuyg'usini shakllantirishda tartib va intizomning o'rni. – Samarqand: Ilm-ziyo, 2020.

15. Bekmurodov S. "Oila va ta'lim muassasasi hamkorligida vatanparvarlik tarbiyasi"//«Pedagogika» jurnali, 2023, №2.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrdagi «Ta'lim muassasalarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 591-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/6656753>.

17. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining milliy dasturi. www.uzedu.uz. – B 6.

18. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-iyundagi 267-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6518238?ondate=16.01.2024>.

19. "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiya"// Vatanparvar gazetasi № 9 (2760) – son, 2.03.2018; 2023 — 2027-yillarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish. Yo'l xarita. <https://lex.uz/docs/-6518238>.

20. Nurmanov A.T., Turganov Yo. Pedagogik mahorat. – Toshkent: "Zebo print", 2022. - B 5.